

**“TBC Bank” ATBning «TBC Plus obunachilari orasida yutuqli o‘yin»
dasturini o‘tkazish qoidalari**

03.12.2025г.

MUNDARIJA

1. Umumiy shartlar;
2. Atama va ta’riflar;
3. Dastur tashkilotchisi;
4. Dasturda ishtirok etish tartibi;
5. Ishtirokchilar huquqlari va majburiyatlari;
6. Bank huquqlari va majburiyatlari;
7. Javobgarlik;
8. Nizolarni hal etish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

1. UMUMIY SHARTLAR.

1.1. Mazkur “TBC Bank” ATBning (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi) “TBC plus obunachilari orasida yutuqli o‘yin” dasturining Qoidalari (keyingi o‘rinlarda “Dastur” deb ataladi) Bank Mijozlarining Dasturda ishtirok etish shartlarini va tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Dastur Qoidalari lotereya emas yoki Dasturda ishtirok etish bilan bog‘liq holda, Dastur ishtirokchilari uchun mol-mulk xavfini yuzaga keltiruvchi tavakkalchilik asosida yaratilgan o‘yin emas. Dasturni o‘tkazish tartib-taomili ishtirokchilar tomonidan biror-bir to‘lovni kiritishi bilan bog‘liq emas.

1.3. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolar Kodeksining 367-moddasiga va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalar Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan - www.tbcbank.uz.

1.4. Dasturning tugash sanasi: 2026 yil 04 yanvar, shu jumladan. Dastur amal qilish muddati: Boshlanish sanasidan boshlab tugash sanasigacha bo‘lgan muddat davomida, shu jumladan.

1.5. Dastur o‘tkazish joyi: O‘zbekiston Respublikasi hududi.

1.6 Bankning istalgan verifikatsiyadan o‘tgan Mijozining 2026-yil 04-yanvargacha TBC Plus obunasini muvaffaqiyatli ulagan taqdirda Dastur ishtirokchisiga aylanishi mumkin. Bankning xizmatlari va mahsulotlarini olish, ulardan foydalanish, shu jumladan TBC Plus mahsulotini ulash tartibi va shartlari Bankning Bosh shartlari (keyingi o‘rinlarda “BSh” deb yuritiladi) va Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan va/yoki Bankning mobil ilovasi orqali ko‘rib chiqish mumkin bo‘lgan Bank mahsulotlarining boshqa shartnomalari bilan tartibga solinadi.

1.7. Bank mijozi TBC UZ mobil ilovasidagi “Oyiga 29 999 so‘mga obuna bo‘lish” tugmasini bosish orqali Dastur amal qilish muddati davomida ushbu Dastur shartlarini va qoidalarini avtomatik ravishda qabul qiladi va ularga rozilik bildiradi.

2. ATAMA VA TA’RIFLAR

Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki.
Dastur	“TBC Plus obunachilari orasida yutuqli o‘yin” dasturi
Bankning Mijozi	Bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs
Ishtirokchi	Dastur ishtirokchisi sifatida mazkur Qoidalarining shartlariga muvofiq kelgan Bankning mijozi.

Ilova	AppStore va Playmarket platformalarida ishlovchi qurilma-smartfonlarda foydalanish mumkin bo'lgan TBC UZ mobil ilovasi.
TBC Plus	Bank mahsuloti -Bank tomonidan "TBC Plus" mahsulotidan foydalanish bo'yicha ommaviy oferta asosida taqdim etiladigan obuna.

3. DASTUR TASHKILOTCHISI.

3.1. Dastur tashkilotchisi - Bank.

3.2. Bankning rekvizitlari: 100015, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B-uy. Telefon: +99878 777 2727. Pochta: contact@tbcbank.uz

4. DASTURDA ISHTIROK ETISH VA SOVG'ALARNI O'YNASH TARTIBI.

4.1. Ishtirokchiga aylanish uchun Bankning Mijozi ushbu Qoidaning 1.6-bandida belgilangan shartlarga rioya etishi zarur.

4.2. Har bir Dastur Ishtirokchisiga Sovrinlarni tasodifiy o'yin orqali yutib olish uchun bitta imkoniyat beriladi. O'yinda quyidagi Sovrinlar taqdim etiladi:

- 1 dona Apple iPhone 17 Pro, 256 GB, Cosmic Orange smartfoni;
- 1 dona Apple Watch Series 10 qurilmasi;
- 3 dona Xiaomi Redmi Pad Pro Wi-Fi 8 plansheti;
- 3 dona Apple AirPods Pro 2 quloqchinlari;
- Korzinkadan 100 000 so'm nominaldagi 100 dona vaucher. *

*Sovrinlarning rangi, tashqi ko'rinishi va texnik xususiyatlari Programma bo'yicha taqdim etilgan axborot materiallaridagi tasvirlar va tavsiflardagi ma'lumotlardan yetkazib berish sharoitlari yoki boshqa omillarga ko'ra farq qilishi mumkin. Bank funksional xususiyatlari va iste'molchi sifatleri saqlangan taqdirda bunday farqlar uchun javobgar emas.

4.3. Sovrinlar o'yini 2026-yil 9-yanvar kuni Dastur Ishtirokchilari orasida o'tkaziladi.

4.4. G'oliblar tasodifiy raqamlar generatori (Randomizer) tomonidan aniqlanadi. G'oliblarning umumiy soni 108 (bir yuz sakkiz) ta teng bo'ladi.

4.5. O'yinda ushbu Qoidalarga muvofiq ishtirokchi bo'lgan barcha mijozlarning imkoniyatlari ishtirok etadi.

4.6. Agar Ishtirokchi o'yinda g'olib bo'lsa, Bank pul mablag'i ko'rinishida bo'lmagan yutuqni o'yin o'tkazilgan kundan boshlab bir oy ichida topshiradi.

5. ISHTIROKCHILAR HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:

- Bank qoidalari va shartnomalarida belgilangan hajmda va tartibda Dastur to'g'risida ma'lumot olish;

- ushbu Qoidalarining 1.6-bandiga rioya qilgan holda, ushbu Qoidalarga muvofiq Ishtirokchi maqomini olish;

5.2. Ishtirokchi ushbu Dastur qoidalari bilan tanishishi shart. Bank mijozining Dasturda ishtirok etishi avtomatik tarzda Bank mijozining ushbu Qoidalar bilan tanishganini va to'liq roziligini bildiradi.

5.3. Ushbu Dasturda ishtirok etish va mazkur Qoidalarga o'z roziligini bildirgan holda aksiya ishtirokchisi sovrinlarni topshirish vaqtida olingan fotosuratlarini axborot aloqa kanallarida joylashtirilishiga o'z roziligini beradi.

6. BANK HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

6.1. Bank ushbu Qoidalarga muvofiq Dasturni o'tkazishi, shuningdek, o'yinda ishtirok etish imkoniyatini taqdim etishi hamda Sovrin o'ynalishi bo'yicha majburiyatlarini bajarishi shart.

6.2. Ushbu Dastur Qoidalarining 1.4-bandiga muvofiq butun Dasturning amal qilish muddati davomida Bank tomonidan bekor qilinishi mumkin emas. Bank, shuningdek, ushbu Dasturning amal qilish muddatini bir tomonlama tartibda uzaytirish huquqini o'zida saqlab qoladi, bu haqda Bank tomonidan mijozlarga istalgan aloqa kanallari orqali xabar beriladi.

6.3. Bank Dastur ishtirokchilarini aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida Dasturni amalga oshirish uchun anketalar yoki boshqa ma'lumotlar va hujjatlarni to'plash orqali ishtirokchilarning shaxsga doir ma'lumotlarini to'plash huquqiga ega.

6.4. Bank bir tomonlama tartibda o'yin shartlarini o'zgartirish va Dastur to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni <https://tbcbank.uz/> veb-saytida, shuningdek, Bank ofislarida e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

6.5. Bank xavf va suiiste'mollik bo'yicha tekshirish ishlarini o'tkazganidan so'ng, Mijoz sovrinni olish uchun talab qilishi mumkin. Shu bilan birga, agar Bank mijozni noqonuniy, shubhali va/yoki firibgarlik xatti-harakatlarini amalga oshirayotgan deb asosli ravishda hisoblasa, Bank Mijozga ushbu Qoidalar shartlarini bajarishini rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Biroq, Bank: (a) har qanday chegirmalarni bekor qilishi; (b) Mijozning Dasturda ishtirok etishini yoki chegirmaga ega bo'lishini taqiqlashi; (c) Mijozning kelajakdagi aksiyalar va o'yinlardagi ishtirokini bloklashi; va/yoki (d) har bir holatda, agar u o'zining oqilona fikriga ko'ra, Mijozning xatti-harakatlari ushbu Qoidalarga zid deb hisoblasa va/yoki Mijoz Dastur shartlarini suiiste'mol qilayotganligi borasida qaror qabul qilgan bo'lsa yoki har qanday holatda uning hisobini to'xtatib qo'yishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi:

(i) bir nechta hisobvarag'lar ochish;

(ii) ro'yxatga olish vaqtida noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish;

(iii) ijtimoiy tarmoqlarda, veb-saytlarda, qidiruv tizimlarida yoki ommaviy tarqatish vositalarining har qanday shakli orqali yolg'on/noqonuniy/noto'g'ri ma'lumotlarni ommaviy ravishda taqdim etish;

(iv) hisobvarag'ning haqiqiy egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga foydalanish huquqi bilan ta'minlash.

7. JAVOBGARLIK.

7.1. Bank mazkur Qoidalar amal qilish muddati davomida yuzaga kelgan tizimlardagi texnik nosozliklar, kamchiliklar, xatolar bilan bog'liq ushbu Qoidalarga muvofiq majburiyatlar bajarmaganligi uchun javobgar emas.

7.2. Agar 7.1-bandda ko'rsatilgan vaziyatlar yuzaga kelsa, Bank texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, kamchiliklar va nosozliklarni bartaraf etish sana va muddatini Bank mustaqil ravishda belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.

7.3. Agar uchinchi shaxslarning qasddan va/yoki qasddan bo'lmagan xatti-harakatlari sabab Bank ushbu Qoidalarda belgilangan shartlarni bajara olmasa, Bank javobgar emas.

7.4. Mazkur Qoidalar asosida tartibga solinmagan boshqa masalalar Bankning Bosh Shartlari hamda Bank va Bankning Mijoz o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

8.1. Ushbu Qoidalaridan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog‘liq barcha nizoli masalalar do‘stona yo‘l bilan maslahat va muzokaralar yordamida hal qilinadi.

8.2. Agar Tomonlar nizo va kelishmovchiliklarni 8.1-bandga muvofiq hal qilishga erisha olmasa, nizolar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq Bankning rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan manzilida hal qilinadi.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ushbu Qoidalar 04.01.2026 yilgacha amal qiladi.

9.2. Ushbu Qoidalar Bankning rasmiy veb-sayti - www.tbcbank.uz da joylashtirilgan.

9.3. Dastur ishtirokchilari yuqoridagi saytda (yuqorida ko‘rsatilgan havolada) tegishli o‘zgarishlarni tekshirish orqali Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.

9.4. Bank mijozi TBC UZ mobil ilovasining “Mulohazalar” bo‘limida bu haqda yozgan holda ushbu Dasturda ishtirok etishni rad etishga haqli.

9.5. Bank xodimlari, Bank affilangan shaxslarining xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari Dasturda ishtirok etishlari mumkin emas.